
Shahrimizda kulolchilik buyumlari savdo do'koni ochildi

Bugun Oybek" mahalla fuqarolar yig'ini hududida qo'l mehnati bilan yaratilgan milliy kulolchilik yunalishida tayyorlangan suvenirlar bilan savdo qiluvchi "Nargiz" nomli do'koni ochildi.

Ushbu savdo do'koni tashkil etilishi bilan 4 ta yangi ish o'rinlari yaratilib, hududdagi xotin-qizlarni ishga olinib bandligi ta'minlandi.

Savdo markazining ochilish marosimida Farg'ona shahar hokimining birinchi o'rinbosari Boburjon Mo'minov ishtirok etib, xotin-qizlarimizga qaratilgan yuksak e'tibor va ayollarimizni jamiyat hayotida faol ishtiroki, har bir sohada ularning o'rni qadrlanayotganligini alohida ta'kidlab o'tdi.

2022-07-21 14:31:44